DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18260595

O‘QUVCHILARNI EKOLOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA KAMOL TOPTIRISH METODIKASI
(7–9-sinflar misolida)

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna
Guliston davlat Pedagogika Instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilarini ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Ekologik tarbiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalari, o‘quvchilarda ekologik ong, ekologik madaniyat va mas’uliyatni shakllantirishning samarali pedagogik metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ekologik qadriyatlarni singdirishning amaliy usullari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik tarbiya, ekologik qadriyatlar, ekologik madaniyat, o‘quvchi, shaxs, metodika, ta’lim-tarbiya, tabiat, ekologik omillar.*

KIRISH

Hozirgi zamon xo‘jalik faoliyati tabiat bilan munosabatlarda jiddiy nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarida tabiiy resurslar katta hajmda jalb etilsa-da, ularning juda oz qismi haqiqiy foydali mahsulot ko‘rinishiga ega bo‘lyapti. Asosiy massa esa ishlab chiqarish yakunida keraksiz, zararli va qayta foydalanish imkoniyati cheklangan chiqindilarga aylanib, tabiiy muhitga qaytarilganining guvohi bo‘lamiz. Bu holat ayniqsa sanoati rivojlangan hududlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi: katta miqdordagi modda va xomashyo o‘zlashtiriladi, ammo ularning deyarli barchasi oxir-oqibat tabiat uchun xavfli yuk bo‘lib qoldi. Ilmiy-texnik

taraqqiyot inson imkoniyatlarini kengaytirgani holda, biosferaga bo‘lgan bosimni ham keskin kuchaytirdi. Tabiiy jarayonlar tezlashib, inson faoliyati ta’sirida ilgari mavjud bo‘lmagan sun’iy moddalar va energiya shakllari atrof-muhitga kirib kelmoqda. Natijada tabiatning asrlar davomida shakllangan muvozanati buzilib, uning o‘zini tiklash qobiliyati tobora zaiflashib bormoqda. Tabiiy qonuniyatlar yangi, ko‘pincha xavfli yo‘nalishda namoyon bo‘la boshladi. Jamiyatning tabiat bilan munosabatlari uyg‘unlik asosida qurilmasa, bu holat uzoq muddatda insoniyat hayotiga bevosita tahdid soladi. Atrof-muhitga ortiqcha yuk tushishi yashash sharoitlarini og‘irlashtirib, kelajak avlodlar uchun xavfli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ekologik muammolarning asosiy sabablari sifatida sanoat ishlab chiqarishining keskin kengayishi, texnologiyalarning nazoratsiz qo‘llanilishi hamda iste’molga yo‘naltirilgan turmush tarzining ustuvorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ekologik muhitning izdan chiqishi inson salomatligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ilgari deyarli uchramagan kasalliklar ko‘paydi: murakkab kechuvchi yuqumli xastaliklar, irsiy buzilishlar, gormonal muammolar, turli allergik va zaharlanish holatlari shular jumlasidandir. Ayniqsa kimyoviy moddalar bilan ifloslanish organizmning tabiiy himoya tizimini zaiflashtirib, ko‘plab kasalliklarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

MATERIAL VA METODLAR

Shu bois atrof-muhit holati nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muhim omil sifatida qaralishi zarur. Insoniyatning barqaror rivoji, aholi salomatligi va hayot sifati tabiatga nisbatan mas’uliyatli, ongli va uzoqni ko‘zlagan munosabatga bog‘liq ekanligi tobora ravshanlashib bormoqda.

Shunday ekan hozirgi yosh avlodni ekologik qadriyatlar asosida kamol toptirish jamiyatda muhum ahamiyat kasb etadi.

Maktab yoshidan, ana boringki bo‘g‘cha yoshidan ekologik tarbiya va ma’daniyatni rivojlantirish maqsadga muofiqdir. O‘rta bo‘g‘in, ya’ni 7–9-sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra mustaqil fikrlashga intiladigan, dunyoqarashi shakllanib borayotgan davrda bo‘ladilar. Aynan shu bosqichda ekologik qadriyatlarni

singdirish orqali ularning ongida tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish samarali natija beradi.

Ekologik qadriyatlar — bu insonning tabiatga, atrof-muhitga bo‘lgan ongli, mas’uliyatli va ijobiy munosabatini ifodalovchi axloqiy-me’yoriy qarashlar majmuasidir. Ushbu qadriyatlarga tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikka amal qilish kabi tushunchalar kiradi.

Ekologik qadriyatlar o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- ekologik ong va tafakkur;
- tabiatga nisbatan mehr va mas’uliyat;
- jamiyat va kelajak avlod oldidagi burchni anglash;
- ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslik.

Shu bois ekologik tarbiya shaxsning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi.

Jamiyatda ekologik masalalarning samarali hal etilishi, avvalo, yosh avlodda tabiatga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilar orasida ekologik mas’uliyat va madaniyatning shakllanishi ularning tabiat haqidagi bilimlari chuqurligi va bu bilimlarni amaliy hayotda qo‘llay olish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy jarayonlar va qonuniyatlarni anglagan o‘quvchi atrof-muhitdan foydalanishda ehtiyotkorlik va mas’uliyatni namoyon etadi.

Bu jarayonning markazida pedagog shaxsining o‘rni beqiyosdir. Ta’lim jarayonida aynan o‘qituvchi o‘quvchilarning ongiga tabiatning yaxlit tizim ekanligi, inson faoliyati bilan atrof-muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda ekologiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini singdirib boradi. Darslar davomida tabiat hodisalari, tirik organizmlar, inson faoliyatining ekologik oqibatlari haqida tizimli tasavvur berilishi ekologik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifasi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatli munosabatni anglatish, o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mas’uliyat, ma’naviy yondashuv va ehtiyotkorlikni rivojlantirishdan iborat. Bunga faqat ilmiy asoslangan, ongli va rejalashtirilgan ta’limiy ta’sir orqali erishish mumkin. Ushbu masala maktab

ta’limi tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Insonning tabiat ustidan cheksiz hukmronligi haqidagi eskicha tasavvurlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Endilikda tabiatga zarar yetkazmasdan, uning boyliklaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanish ustuvor g‘oyaga aylanishi lozim. Shu bois ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etishda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda ekologik masalalarning samarali hal etilishi, avvalo, yosh avlodda tabiatga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchilar orasida ekologik mas’uliyat va madaniyatning shakllanishi ularning tabiat haqidagi bilimlari chuqurligi va bu bilimlarni amaliy hayotda qo‘llay olish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy jarayonlar va qonuniyatlarni anglagan o‘quvchi atrof-muhitdan foydalanishda ehtiyotkorlik va mas’uliyatni namoyon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu jarayonning markazida pedagog shaxsining o‘rni beqiyosdir. Ta’lim jarayonida aynan o‘qituvchi o‘quvchilarning ongiga tabiatning yaxlit tizim ekanligi, inson faoliyati bilan atrof-muhit o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda ekologiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini singdirib boradi. Darslar davomida tabiat hodisalari, tirik organizmlar, inson faoliyatining ekologik oqibatlari haqida tizimli tasavvur berilishi ekologik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifasi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatli munosabatni anglatish, o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mas’uliyat, ma’naviy yondashuv va ehtiyotkorlikni rivojlantirishdan iborat. Bunga faqat ilmiy asoslangan, ongli va rejalashtirilgan ta’limiy ta’sir orqali erishish mumkin. Ushbu masala maktab ta’limi tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Insonning tabiat ustidan cheksiz hukmronligi haqidagi eskicha tasavvurlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Endilikda tabiatga zarar yetkazmasdan,

uning boyliklaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanish ustuvor g‘oyaga aylanishi lozim. Shu bois ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiyani tashkil etishda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tabiiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik jihatdan ongli va mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalash jarayonida o‘quvchilarga faqat og‘zaki nasihat berish yetarli natija bermaydi. Aksincha, ularning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladigan, shaxsiy tajribaga asoslangan faoliyatlar samaraliroq hisoblanadi. Tabiat bilan bevosita bog‘liq mashg‘ulotlar orqali o‘quvchi ekologik qadriyatlarni chuqurroq anglay boshlaydi.

Masalan, sinf yoki maktab hududidagi o‘simliklarni asrash haqida oddiy ogohlantirishlar ko‘pincha bolalar ongida uzoq saqlanib qolmaydi. “Gullarga zarar yetkazmang, ularni parvarish qilish uchun mehnat qilingan” kabi gaplar tezda unutiladi. Ammo o‘quvchining o‘zi tabiatni asrash jarayoniga faol jalb etilsa, vaziyat butunlay o‘zgaradi. Agar o‘qituvchi har bir o‘quvchiga bir o‘simlikni ekish va uni butun o‘quv yili davomida parvarishlash vazifasini yuklasa, bu topshiriq ularning mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Vaqt o‘tishi bilan o‘quvchi o‘z guli uchun mehnat qiladi, unga mehr beradi va natijada tabiatga nisbatan ehtiyotkor munosabat shakllanadi. Bunday tajribaga ega bo‘lgan bola boshqa o‘simliklarga zarar yetkazmaydi, chunki u ularning o‘sishi ortida turgan mehnat va vaqtni anglaydi.

Bugungi kunda fan va texnika yutuqlari inson hayotini yengillashtirgan bo‘lsa-da, atrof-muhitga ko‘rsatilayotgan bosim ham keskin ortib bormoqda. Yer, suv va havo kabi asosiy tabiiy resurslar jiddiy darajada ifloslanmoqda, ayrim o‘simlik va hayvon turlari esa yo‘qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish va mavjud boyliklardan oqilona foydalanish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Jamiyatda ekologik muammolarning kamayishi har bir fuqaroning ekologik madaniyatiga bog‘liq. Agar har bir ongli inson tabiatni asrash mas’uliyatini his etsa, ekologik barqarorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, kelajak mutaxassislari umumiy va kasbiy ekologik bilimlarga ega bo‘lishi, milliy hamda umuminsoniy

qadriyatlarni o‘zlashtirgan holda faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining tabiatni asrashga oid an’analari va qadriyatlariga tayangan holda tarbiyalangan yoshlar tabiatga zarar yetkazuvchi faoliyatdan yiroq bo‘ladi.

Shu bois bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ekologik madaniyatini rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim va hal qiluvchi vazifalardan biridir.

Ekologik tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitni muhofaza qilishga oid dastlabki ilmiy tushunchalarni shakllantirish;
- zamonaviy ekologik siyosat va uning mazmunini anglatish;
- o‘quvchilarda amaliy ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- ekologik tadqiqot olib borish malakalarini hosil qilish;
- ekologik madaniyatning tarixiy ildizlari haqida bilim berish.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya va ekologik madaniyat insonning jamiyat va tabiatga bo‘lgan munosabatlarini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. O‘zbek xalqi tarixida yosh avlodni tabiatga hurmat ruhida tarbiyalashga oid boy ma’naviy meros mavjud. Ushbu merosni chuqur o‘rganish, kundalik hayotga joriy etish va uni kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES) (REFERENCES)

1. Muftaydinov Q. X. Ekologiya darsligi — Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Iqlim o‘zgarishi Vazirligi. Ekologik ta’lim-tarbiya bo‘yicha davlat dasturlari va yo‘riqnomalar — O‘zbekiston Respublikasi rasmiy nashrlar to‘plami, 2021–2025.

3. Sitora A. Azamova. In the Context of Environmental Globalization, the Need for Environmental Education Becomes a Priority — ilmiy maqola, 2024.

4. Samad X. Xudaynazarov. The Role of Values in Maintaining Ecological Balance in New Uzbekistan — ilmiy maqola, 2025.

5. Jobborov A’zam Mashrabovich va boshqalar. Integrating Environmental Culture in Geography Lessons — ilmiy maqola, 2025.